

EKOLOGIK TA'LIM TARBIYA YOSHLAR NIGOHIDA

D.S. Ilxamdjanova

Toshkent gidrometeorologiya texnikumi maxsus fan o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Ekologik madaniyat ham umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi, uning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. U siz insonni to'la ma'noda madaniyatli, ma'naviyatli deb bo'lmaydi.*

Kalit So'zlar: *Zardushtiylik ,ekolog-agroximik, ekolog-texnolog, ekotizim, ekologik ta'lif, ekologik madaniyat.*

KIRISH

Ekologik ta'lif –tarbiya orqali kishilarda jumladan yoshlarda koinotdagi yagona hayot mavjud bo'lgan .Yer sayyorasi haqidagi tasavvurlar, o'z yashash muhiti to'g'risidagi bilimlar, atrofimizdagi olam tabiat va insonlarni o'zaro uzviy bog'langanlik haqidagi ilmiy nazariy dunyoqarashlar o'liasi va vatanini ekologik timimlari ularning paydo bo'lishi evolyusion rivojlanishi, antropogen o'zgarishlari, makon va maydon bo'yicha tarqalish qonunyatlari undan kelib chiqadigan xususiyatlari boyliklari, holati kelajak istiqbollari, milliy , regional va global miqyosdagi tabiat va jamiyat munosabatlari, amaliy ekologik ko'nikma va malakalar .Yer yuzasi atrof muhitni muhofaza qilish uning boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat va majmualarini qayta tiklashga oid muammolarini anglash va ularni yechimini topishga doir to'g'ri qarorlarni qabul qilish kompotensiyasi ularni tanlangan kasblarga qarab ekologik ta'lif va tarbiya shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof–muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvdir. Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlari: 1) axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim madaniyatlilik sifati bo'lib, uning atrof – muhitni hissiy bilish jarayoni atrof – muhitdagi obyektlar va hodisalarini sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligini nazarda tutadi; 2) ekologik ma'suliyatlichkeit shaxsda munosabat va ma'sullikni tarbiyalashda namoyon bo'ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o'ylamay tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri oqibatlarini anglash va bunday ta'sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi; 3) ekologik irodaviylik shaxsning o'zi va o'zgalarning atrof – muhitdagi hattiharakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat'iyatlilik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog'liq. Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilalar kiradi. Masalan, ekologik qadriyatning bir turi, ya'ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish yer, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho'llanish jarayoni, atmosfera havosining

ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bo'gлиq. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning tabiatga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'lar ekan. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik muammolar ham ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muamolar butun dunyo (global) muammolariga aylanib bormoqda. [3]

Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigienik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yo'naliishlari mavjud. Bu yo'naliishlar ichidan pedagogik yo'naliish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar inson faoliyati natijasida kelib chiqadi.

Pedagogik yo'naliishda ekologik ta'lismi va tarbiya berish ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lismi deganda o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.

Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir.

Ekologik ta'lismi-tarbiya umumiyligi ta'lismi-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, muktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lismi-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlarni yashab turgan tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgata boriladi.

Ekologik tarbiyada o'quvchilarni o'z muktabini; yashaydigan muhitishahar va qishloq ko'chalarini o'kalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekish, xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash, uy hayvonlariga qarash kabi ishlarda kuchi yetgancha qatnashishga jalb etish katta ahamiyatga ega.

Ekologik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni muktablarda, keyingi ta'lismi bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi. Ekologik ta'lismi-tarbiyani asosan, bog'cha va muktablarda amalga oshirish zarur. Bog'cha bolalarida avval ekologik ta'lismi tushunchalari shakllantiriladi. 1-5 sinflarda esa, asosan, tabiatshunoslik darslarida o'qituvchilarga ekologik ta'lismi-tarbiya beriladi. Bunda ekologiyadan ilmiy tushunchalar muktablarda o'qitiladigan barcha fanlarda, ayniqsa, tabiatshunoslik, fizika, ekologiya, matematika, geografiya, tarix kabi fanlarni o'qitishda umumlashtiriladi. Shu bilan birga fakul'tetiv mashg'ulotlarda, darsdan tashqari to'garak yig'ilishlarida, ekskursiya davrida hamda o'zlariniig kundalik faoliyatları davomida muammolarni o'rgana boradilar. [8]

Ekologik Fanlarni o'qitishda o'quvchilarga tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga oid beriladigan bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish o'qitishda qo'yilgan maqsad va vazifalarga mos ravishda hamda tanlangan ekologik materiallar mazmuni mavzu mazmuniga mos holda tanlab olinishiga e'tibor qilinadi. Muktabda o'quvchilarga tabiatni muhofaza qilishga doir bilim tarbiyani geografiya darslarida har bir mavzuga bog'lab berib borish mumkin.

Ekoliya va tabiatni muxofaza qilish darslarida joy nomlaridan foydalanish ona tili bo'yicha mashg'ulotlarni yanada qiziqarli qiladi. Ona tili darslaridagi ko'plab mashqlar o'quvchilarda tabiatga mehr uyg'otishda qo'l keladi. Mashqlardagi suv va havo, o'simlik va hayvonot olamiga taalluqli fikrlar ifodalangan matnlarni tahlil qilish orqali ham tabiatga mehr uyg'otish mumkin. Adabiyot fani ham ekoligiya bilan chambarchas bog'langan. Bunda har bir asarni o'qib tahlil qilish vaqtida va o'quvchiga tushuntirayotganda faqat bezash nuqtai nazaridan emas, ya'ni tabiatni muxofaza qilish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Mana shu usul bilan adabiyot darslarida ham o'quvchilar ongiga ekologik tarbiyani singdirib boriladi. Shuningdek, 5-11sinflarda «Tabiatni asrash-Vatanni asrash», «Tabiatni e'zozlaylik» kabi mavzularda turli baxs va she'rxonlik kechalari uyushtirish orqali ham ekologik tarbiyani amalga oshirish mumkin. Adabiyot fanida o'qitilayotgan xalq og'zaki ijodi misolida esa o'quvchilar ajdodlarimizning ekoligiya xatolari nimadan iboratligini hamda bu sohada ularning qanday ibratli ishlari borligini o'rganadilar.

O'quvchilarga aytildigan ertaklarda hayvonlar va o'simliklarning hususiyatlari, ularning tabiatdagi 3 o'rni ochib beriladi. O'qilgan badiiy asarlar misolida, o'tkazilgan suhbatlarda tabiatga yaxshi munosabatda bo'lish va toshbag'irlik bilan qarash dalillari muhokama qilinadi.

Matematika fanida beriladigan ekologik ta'lif va tarbiya jarayonida o'quvchilar tabiatdagi salbiy va ijobiy o'zgarishlar inson sog'lig'iga qanday ta'sir qilish haqida aniq tasavvurga ega bo'lishadi. Masalan, Respublikada 1200 ga yaqin sanoat korxonasi borligi, ular havoga bir yarim.ming tonnaga yaqin zaharli moddalarni chiqarayotganligi, bunday holat 10 yil, 20 yildan keyin shunday holda ketaversa, nimalarga olib kelishi mumkinligi kabi misollar vositasida ekologik falokat oqibatlari tasvirlanadi, yoki boshqa bir misol. Dunyo bo'yicha har yili taxminan 6-7 mln.gektar yer ishdan chiqmoqda. Uning tiklanishi uchun juda ko'p vaqt kerak bo'ladi. 3 sm qatlamidagi tuproqning tiklanishi uchun 300-500 yil vaqt zarur. 18 sm qalinlikdagi tuproq tiklanishi uchun esa taxminan 2700 yil talab etiladi. Bunday aniq raqamlar bilan ifodalangan misollar asosida tuproqning insoniyat boyligi ekanligi, uni asrab avaylash kishining kelajak oldidagi burchi hisoblanishini uqtiriladi. Har bir Mehnat ta'limi darslari esa bolalar olgan bilimlarini amaliyatda ko'rishlari uchun imkoniyat yaratadi.

NATIJALAR. Ekologik ma'nnaviyatli shaxsni tarbiyalash bog'chalar, maktablar, lisey, kollejlar, oliygochlarda mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq. Aholining boshqa tabaqalarida esa O'zbekiston ekologik partiyasi va boshqa ko'ngillilar, tashkilotlar tomonidan targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilishi mumkin. Ekologik ta'lifning nazariy asosi - atrof muhit muhofazasiga oid ta'lifni bog'cha, muktab, katta-kichik o'quv yurtlari, oliy o'quv yurtlarida ma'lum o'quv reja va dasturlari asosida olib borish hamda malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Yig'ilgan tajribalar umumlashtirilib bir pedagogik shaklga keltirilib o'quv dasturi darsliklari tuzilishi lozim. Oliy va o'rta maxsus ta'limga ega bo'lgan tarbiyachi, ekologik metodist, ekologik pedagog, ekologik instruktor, injener-ekolog, ekolog-agroximik, ekolog-texnolog kabi mutaxassislar tayyorlanishi lozim. Ekologik ma'nnaviyatli shaxs tabiatdagi obyekt va hodisalarni qiyoslay olishi, ongli tushunchalar hosil

qilishi, tabiatga munosabatni oldindan rejalashtirishi, atrof-muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan ziyrak bo'lishi, tabiatga qiziquvchan bo'lishi, tabiat go'zalligini his eta olishi, tabiatni muhofaza qilishda qat'iyatli bo'lishi, tabiatga zarar yetkazmaslik, boshlangan ishni oxirigacha yetkazishi, atrof-muhit muhofazasida tashabbus ko'rsatishi, tabiatni asrash uchun yangi g'oyalar, ekologik bilimlarni targ'ib qilishi, ijtimoiy foydali mehnatga havas hissini shakllantirishi, mehnat malakalarini egallashi, o'z-o'zini nazorat qila olishi, tabiat bilan munosabatga kirishish va undagi faoliyatda me'yor darajasini belgilashni bila olishi, vatanparvarlik, ona tabiatga mehr-muxabbat hissiyotiga ega bo'lishi, o'zi yashab turgan uy, mahalla, shahar tabiatini sevishi, undan g'ururlanishi, uni ardoqlashi lozim, tabiat boyliklaridan bugungi va keljak avlodlar ehtiyojlarini qondirishni hisobga olgan holda barqaror foydalana olishi, atrof - muhitni obod qilishga intilish, uni ozoda va xushmanzara holda saqlashi, tabiatni asrab-avaylashda, tabiat boyliklarini maqsadli ishlatishda jonbozlik namoyon eta olishi, atrof - muhit, obyekt va boshqa narsa-hodisalarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi, o'zining ekologik bilimlarini muntazam ravishda tabiatni asrab-avaylashga oid qadriyatlarimizga tatbiq qilishi lozim. Ekologik madaniyatni rivojlantirishda boshqaruvning o'rni faqatgina Davlat xizmati bilangina emas, balki jamoatchilik rolini oshirish bugungi demokratik, huquqiy davlat qurish yo'lidagi ekologik bilimlarni targ'ibot qilish, aholining ekologik saviyasini ko'tarish borasida bir muncha ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin shunga qaramay bu sohada bir qator kamchiliklar ham mavjud. Insoniyat qadimgi zamonlardanoq tabiatning bir qismi ekanligini anglab, u o'zining harakatlari bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ongli ravishda boshqariladiganligini his qilib kelgan. Lekin insoniyat tabiatdan foydalanib uni qayta tiklanishiga e'tibor qaratilishini kech bo'lsa-da, tushunib yetdi. Insonlar madaniyati shakllanib rivojlana borar ekan, tabiat in'omlari bo'lmish o'simlik va hayvonot dunyosi turlarini bir qanchasini madaniylashtirib, o'zları uchun foydalanishni amalga oshirish jarayoni hozirda ham davom etayotgan jarayondir.

Ekologik duyonqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiya va ta'lif muassasalariga bevosa bog'liqdir. Ajodolarimiz bola tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor bilan qaraganlar va bu borada ibratli an'analarni vujudga keltirganlar. Bolalar go'daklik chog'laridanoq axloqiy va mehnat tarbiyasini oilada boshlaganlar. Ularda mehnatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat, obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish hissi sabot bilan singdirilgan. Masalan, atrofni ifloslantirmaslik uchun axlatlarni alohida chuqurchalarga tashlash, hojatxonalarini ariq, soy, bo'loq suvlaridan uzoqroq joyda kovlash, yong'in chiqmasligi chorasini ko'rish, turli ehtiyojlar uchun yashnab turgan daraxtda emas, balki qurib qolganlaridan foydalanish, nihollarni sindirib, payxon qilmaslik, qushlarning uyasini buzmaslik kabi xattiharakatlar shakllantirilgan. Oila davrasida farzandlarga «Suvga tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi», «Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o'zing iste'mol qilasan», «Pishib etilmagan uzumni uzma, agar uzsang katta gunoh ish bo'ladi. Chunki unda ahli mo'minning nasibasi bor» –deb pandu-nasihatlar qilganlar. Agar diniy qarashlarning qadimiy tarixiga nazar

solsak, ularda tabiat unsurlarining, hayvon va boshqa jonivorlarning muqaddaslashtirilgani hamda sig'inilgani uchratamiz. Zardushtiylik dining muqaddas kitobi "Avesto"da borliqning moddiy asosi hisoblangan to'rtta unsur, tuproq, suv, havo muqaddaslashtirilgan, olovga esa sajda qilingan. Xulosa. O'rnida ta'kidlash joizki, mamlakimizning har bir fuqarosi ekotizimning yaxshilanishiga munosib hissa qo'shish uchun ekologik qoidalarga qat'iy amal qilsagina, kelajak avlod uchun ulkan tabiiy nemat hadya etgan bo'lamiz. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Atrof muhitning joriy holati tahlili, global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik xavf-xatarlar O'zbekiston Respublikasida aholining hayot sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning ajralmas qismi hisoblangan 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini (keyingi o'rinnlarda Konsepsiya) ishlab chiqish zaruratini vujudga keltirdi. So'nggi yillarda respublikada ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog'lig'iga zararli ta'sirining oldini olish, shuningdek, hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida texnik va texnologik jarayonlar oqibatida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishga yangi yondashuvlarni joriy qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Калинин В. Б. Концепции и проблемы // Экология и жизнь. - 1996. С. 62
2. Ясвин В.А. Формирование экологической культуры школьников в разделе «Человек и его здоровье» средствами спецкурса «Экология человека»: автореф: дис. ... канд. пед. наук. - М., 2007. – С. 6
3. Raximbayev Otobek Davlatbayevich, Orolbo'yи hududlarining antropogen omillar ta'siri ostida gidrogeologik sharoitlarning o'zgarishi, международный научный журнал № 2(100), часть 1 «научный фокус» июня, 2023
4. Ситаров В.А., Пустовойтов В.В. Социальная экология. – М.: Академия, 2000. – С. 34.
5. Abdullaeva, M. T., & Usmanova, T. E. (2022). Fundamentals of ornamental plant protection. Eurasian Journal of Academic Research, 2(1), 104-104. 5. Abdullaeva, M. T., & Ibragimova, S. S. (2022, January). The role of ecological education in the development of ecological culture in our youth. In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 2, No. 1).
6. To'lanovna, A. M., & Maxammadjonovna, M. G. (2021). Ekologik ta'lim va tarbiyada xorijiy tajriba.

7. О.Д.Рахимбаев. Оролбўйи ҳудудларида кузатилган антропаген ҳодисаларининг кўп йиллик ўзгаришини ўрганиш // «The Best Innovator in Science-2022» халқаро илмий танлов тўпламида. Тошкент-2022 й.

8.Рахимбаев.О.Д., Закиров.М.М. Влияние антропогенных изменений на экологические условия приаралья // “Ер қаъридан оқилона ва бехатар фойдаланишнинг рақамли трансформациялашдаги XXI аср таваккаллари, қийинчиликлар ва муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-техник анжуман материаллари тўплами- Тошкент, 2022

9. Nishonboyev, Azizbek, Tokhirjon Tukhtasinov, and Maxammadjon Ro'zikov. "WAYS TO FORM INDEPENDENT THINKING OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING MATHEMATICS." International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research 3.3 (2023): 49-51.

10. Nishonboyev, Azizbek, Tokhirjon Tukhtasinov, and Maxammadjon Ro'zikov. "WAYS TO FORM INDEPENDENT THINKING OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING MATHEMATICS." International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research 3.3 (2023): 49-51.